MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FAKULTETI

“UMUMIY PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

«YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASI JARAYONIDA PSIXOLOGIK YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI»

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MAQOLALAR TO‘PLAMI



Toshkent – 2023 yil

“Yoshlar ta’lim-tarbiyasi jarayonida psixologik etuklikni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani материаллари. – Toshkent: , 2023. – 792 bet.

Mazkur to‘plamda psixologiya sohasidagi respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, o‘rta umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarning amaliy psixologiya , O‘zbekistonda sifatli ta’lim: omillar, muammolar, echimlar; zamonaviy axborot muhitida yoshlar ta’lim-tarbiyasi muammosi; psixologik etuklikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik usullari hamda globallashuv davrida yoshlardagi xulq-atvor agressiyasi muammosi va uning echimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlar, amaliy echimlarga bag‘ishlangan maqolalar kiritilgan.

Anjuman materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay’ati:

Akramova F.A	Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy psixologiya” kafedrasi professori v.b, ps.f.d.
Juraeva S.N	Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy psixologiya” kafedrasi professori v.b, ps.f.d.
Axmedova M.X	Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy psixologiya” kafedrasi dotsenti, ps.f.d.
Nazirova L.V	Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy psixologiya” kafedrasi dotsenti, ps.f.d.
Abdullaeva R.M	Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy psixologiya” kafedrasi dotsenti, ps.f.n.
Jurakulova D.Z	Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy psixologiya” kafedrasi katta o’qituvchisi, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti “Umumiy psixologiya” kafedrasi mudiri ***X.A.Tillashayxovaning umumiy tahriri ostida***

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldirlar.

Anjuman materiallari Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2023 yil ____ _____ dagi № ___ - sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO'ZI

A.G'.Qirg'izboev
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti rektori,
tarix fanlari doktori, professor

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan mamlakatimizda Taraqqiyot strategiyasini yanada yangi bosqichga ko'tarish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli va shiddatli islohotlar tufayli yangi-yangi tashabbuslar, dastur va rejalar faoliyatimiz mezoniga aylandi. Xalqimiz ko'nglidagi orzu-intilishlar ifodasi bo'lgan bunday ezgu harakatlar hayotimizni sifat jihatidan butunlay o'zgartirishga xizmat qilmoqda. «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi, joylarda aholi bilan muntazam o'tkazib kelinayotgan jonli muloqotlar, sayyor qabullar, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yangiliklar – bularning barchasi tarixan qisqa muddatda islohotlarimizga ulkan hayotbaxsh qudrat bag'ishlagani noyob ijtimoiy hodisadir. Eng muhimi, yurtimizda boshlangan bu mislsiz yangilanishlar tobora jadal tus olmoqda. Bu tashabbuslar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Taraqqiyot strategiyasi[1] markazida inson, xalq va davlat manfaatlari o'zak va bosh g'oya, ustuvor maqsad bo'lib turgani va bizni ulkan amaliy ishlarga undayotganini yana bir bor yaqqol tasdiqlamoqda.

Ma'rifatparvar shaxs Abdurauf Fitrat o'sib kelayotgan kelajagamiz nihollariga quyidagicha ta'rif beradi: "Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odat, axloqini qabul qiladilar"[2].

Inson borki, kelajakda o'z farzandlarining xuzur-halovatini, baxt-saodati va kamolini ko'rishni orzu qilib yashaydi. Shu yo'lda kurashadi, mehnat qiladi, kerak bo'lsa jonini ham ayamaydi. Zero, bolalarini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularning boshini qovushtirib, xo'jalik yuritish va oila tebratishga o'rgatish, jamiyatning iqtisodiy hamda ijtimoy taraqqiyotini tezlashtirishga munosib hissa qo'shadigan bunyodkor va ijodkor, qa'tiyatli va e'tiqodli, yurtparvar avlodni voyaga etkazishga ko'maklashish har bir oila, har bir ota-onaning davlat va jamiyat oldidagi muqaddas burchidir.

Shunday ekan, bugungi kunda bizning maqsadimiz, farzandlarimizni ta'lim-tarbiyada mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan, komil insonlar etib

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони, http://lex.uz.

[2] Ўзбекистон Республикаси Мусулмонлар идораси Тошкент вилояти вакиллиги расмий веб – сайти. http://fitrat.uz/yoshlar-manaviyatiga-arshi-kurash

tarbiyalash vazifasi ekanligini anglashimiz zarur.

Bu borada Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakultetida bo‘lib o‘tadigan «Yoshlar ta’lim-tarbiyasi jarayonida psixologik etuklikni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman kun tartibida:

1. Sifatli ta’lim: omillar, muammolar, echimlar;
2. Zamonaviy axborot muhitida yoshlar ta’lim-tarbiyasi muammosi;
3. Psixologik etuklikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik usullari;
4. Globallashuv davrida yoshlardagi xulq-atvor agressiyasi muammosi va uning echimlari.

Masalalarining keng muxokama maydoniga qo‘yilgani taxsinga sazovordir.

Mazkur konferensiyaning ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

TABRIK SO‘ZI

B.S.Abdullayeva

Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy ishlar va innovatsion rivojlanish prorektori,
pedagogika va psixologiya fanlari doktori, professor

Jahonda psixologik ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv faoliyati motivatsiyasining o‘ziga xos jihatlarining psixologik mexanizmlarini o‘rganish masalalariga alohida e’tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Mazkur muammoning dolzarbligi «Ta’lim sub’ektida ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishni ta’minlash, motivini kuchaytirishi muhim ekanligi»[3] hamda Ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilot Education International hujjatlarida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi shaxsiga alohida talablar qo‘yilganligi[4] bilan ham izohlanib, bu masalaga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Bu borada pedagogik ta’limda talabalar o‘quv motivlarini shakllantirishga e’tibor berish, motivlarini shakllantirishning yangicha institutsional asoslarini yaratish zarurati dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Jahon ta’lim va ilmiy muassasalarida psixologik ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllanish mexanizmlarini o‘ziga xos konsepsiyasini ishlab chiqish masalalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada talabalarning o‘quv faoliyati motivatsiyasini kuchaytirish, psixologik komponentlarini tahlil qilish, o‘quv faoliyati samadorligiga ta’sir etuvchi psixologik usullarini ilmiy tadqiq etishga e’tibor qaratish zarurati dolzarb ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida o‘qituvchilarni tayyorlash, ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. «Ta’lim oluvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, pedagog kadrlarni ilmiy salohiyatini oshirib borish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab borish...»[5] strategik vazifalar belgilanib, ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, bo‘lajak pedagoglarda o‘quv-ilmiy faoliyat motivatsiyasini shakllantirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy echimlarni topish imkoniyatlari yaratilganligini qayd etish maqsadlidir.

Xulq-atvor va faoliyat motivatsiyasi muammosi psixologiyadagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shaxs motivatsion sohasini o‘rganishda nazariy va eksperimental

---

[3] https://eduherald.ru/ru/article/view?id=17804

[4] Стратегия Европейского Союза в области образования и профессиональной подготовки (ET2020) //Гаськов В.В. Согласование стратегических целей и индикаторов профессиональной подготовки кадров с международными рекомендатsiями и опытом. 2018. – С.11.

[5] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги ЎРҚ 576-сон «Илмий-фан ва илмий фаолият тўғрисида»ги Қонуни/https://lex.uz/docs/4571490.

yondashuvlarning xilma-xilligi kuzatiladi. Buning asosiy sabablaridan biri eng avvalo, zamonaviy psixologik maktablarning turli falsafiy yo‘nalishlari, ikkinchidan, bu hodisaning ziddiyatlarga to‘laligi va murakkabligi bilan bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda psixologik ilmiy adabiyotlarda o‘quv-ilmiy faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki motivlar masalasi mohiyatan o‘quv-ilmiy faoliyatining sifati haqidagi masaladir. Tashqi, utilitar motivlarning ustunligi o‘qitishning rasmiy tabiat kasb etishiga, ijodiy yondashuv, o‘quv va ilmiy maqsadlarini mustaqil belgilashning yo‘qligiga olib keladi. Ma’lumki, ta’lim olishga ya’ni o‘qishga va ilm olishga bo‘lgan xuddi mana shu salbiy yoki befarq munosabat tahsil oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining past bo‘lishi yoki o‘zlashtirishning umuman bo‘lmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar o‘rganilgan. Biroq motivatsiyaning psixofiziologik omillari va o‘quv-ilmiy faoliyatining muvaffaqiyati orasidagi aloqadorlik masalasi etarli darajada o‘rganilmagan. So‘nggi yillarda yarim sharlar orasidagi assimetriyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar soni ortib bormoqda. Shu bilan birga, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani psixologik va psixofiziologik omillarni hisobga olgan holda yosh mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirish omili sifatida o‘z vaqtida tashhis qilish va korreksiya qilish psixologlarning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu erda muammo individual psixologik va psixofiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, psixologik va o‘qituvchiik ta’sirning o‘qishga nafaqat eng yaxshi darajada rag‘batni uyg‘otadigan, balki tahsil oluvchi shaxsining maksimal darajada rivojlanishi va imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirishiga yordam beradigan zarur metodlarini topishdan iborat.

Tahsil oluvchilarning motivatsion sohasini shakllantirishning asosi bo‘ladigan zarur o‘qish jarayonini qurish zamonaviy ta’limining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Psixik hodisalarning darajaviy tuzilishi g‘oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbiq etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarning muayyan tizimga keltirilgan modellarini hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivatsion sohasida o‘z darajasi va murakkabligiga ko‘ra turlicha bo‘lgan motivatsion hodisalarning mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g‘oyalarning bu yo‘nalishda ham samarali qo‘llash uchun sharoit yaratadi. Inson motivatsion sohasining ierarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog‘liq eng o‘tkir va keskin bahslarga sababchi bo‘luvchi muammolardan biridir. Tahsil oluvchilarning motivatsion sohasini shakllantirishning asosi bo‘ladigan zarur o‘qish jarayonini qurish zamonaviy ta’limining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.Shu munosabat bilan, OTMda talabalarni o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasining mavjud holati va ularning o‘quv faolligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar orasida; talabalarning motivatsion sohasini boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslangan

tavsiyalarda amaliyotga bo‘lgan ehtiyojlar va buning uchun etarli ilmiy-psixologik bilimlarning yo‘qligi orasida ziddiyatlar paydo bo‘ladi.Bo‘lajak o‘qituvchi-talabalarining motivatsion sohasini o‘rganish alohida ahamiyatga ega, chunki bu kasbga o‘rganish (kasbni o‘rganish) jarayonida boshqalardan farqli o‘laroq, bo‘lajak psixologlarda ilmiy psixologiya asoslarini bilish, o‘zlarini, jumladan, o‘z motivatsion sohasini o‘zgartirish imkoniga ega. Ilmiy innovvatsion tafakkur, o‘quv-ilmiy faoliyat, o‘quv-ilmiy xatti-harakat hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan aynan psixologik muammolar so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab fanlardagi tadqiqotchilarning jiddiy e’tibor ob’ektiga aylandi, bu zamonaviy ijtimoiy amaliyot talablaridan kelib chiqmoqda.

Talabalarning kasb yo‘naltirilganligi shaxsning tipologik xarakteristikasi, uning yaxlitligining ifodasi; qadriyatli strukturasi, xususiyatlar majmui; kasbiy o‘zligini aniqlashning o‘zagi; ichki holatlar (motivlar, ustanovkalar, qadriyatlar) tizimi hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirishning yuqori darajasi shaxsning energiya va ijodiy potensialini uyg‘otadi va faollashtiradi.

Talabaning o‘quv faoliyatini motivatsion qo‘llab-quvvatlashning komponentlari ba’zi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Diqqat-e’tiborni o‘quv vaziyatiga jamlash talabalar o‘quv faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda. Chunki, OTM sharoitlarida, diqqat-e’tiborning mazmuni o‘quv jarayonining maqsadlarining keng ko‘lamliligi, diqqat-e’tibor ob’ektlar sonining oshishi, o‘quv ishining turlari va usullarining turli-tumanligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorlanganligi darajasi bog‘lq bo‘ladigan talabaning o‘quv faoliyati natijalariga maktabdagiga qaraganda sifat jihatdan talablar bilan bog‘liq holda murakkablashadi.

Yoshlarni o‘quv-ilmiy faoliyati murakkab tuzilishga ega: bu ko‘plab tarmoqlangan jarayonlarning ajralmas natijasidir va ularni barcha jihatlari birligida ko‘rib chiqish kerak. Biroq, uning yadrosi o‘ziga xos o‘quv-ilmiy tafakkur bo‘lib, u innovatsiyalarni rivojlantirish va amalga oshirishning barcha bosqichlariga xizmat qiladi va ularning sifatli, samarali, amaliy qo‘llanilishini ta’minlaydi. Bunday fikrlash kamdan-kam hollarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Odatda, u uzoq vaqt davomida fikrlash jarayonlarini rag‘batlantiradigan qulay muhitda tuziladi, shuning uchun yoshlarni o‘quv-ilmiy faoliyatga tayyorlash iloji boricha tezroq amalga oshirilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan taxlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

talabalar o‘quv-ilmiy faoliyatini tashkil etishda motivatsion tizimning kognitiv, emotsional, ijtimoiy komponentlarini bilish zarurdir; talabalarda o‘quv-ilmiy faoliyat motivining dinamik tarzda namoyon bo‘lishida kasbiy tasavvurlar, kasbiy yo‘nalganlik, tanlangan kasbdan qoniqqanlik, kasbiy etiyojlar ierarxiyasini refleksiv darajada tahlil qilish omillari muhim ahamiyatga ega.

KEKSALIK BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA

Jumayeva Guljahon O'ralovna
TerDU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Qarilik, keksalik (qarish) - organizm hayotining yoshga bog'liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayon. A'zo va sistemalarda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berib boradi, bu esa asta-sekin organizmning hayotga moslashuv imkoniyatlari susayishiga olib keladi. Bu yoshning eng muhim xususiyatlaridan biri yosh o'zgarishi bilan kechadigan genetik programmalashtirilgan jarayonning qarishini bildiradi. Qarilik murakkab bioijtimoiy psixologik hodisadir. Biologik jarayon sifatida qarilik organizmning keksayishi, o'lim ehtimolining ortishi bilan bog'liq. Ijtimoiy hodisa sifatida keksalik nafaqaga chiqish, ijtimoiy statusning o'zgarishi, muhim ijtimoiy rollaming yo'qolishi bilan bog'lanadi. Psixologik darajada bu ro'y bergan o'zgarishlarni anglash va unga muvaffaqiyatli moslashishdan iborat. Dastlab organizm faoliyatining sekin-asta susayishida kuzatiladi. Bu yoshdagi insonlarning jismoniy kuchi, energiyaning umumiy zaxirasi yoshlik davriga nisbatan ancha kamayganligini kuzatish mumkin. Insonning qon aylanish va immun tizimi ham susayadi. Qarish jarayoni insonning nerv sistemasiga ham ta'sir qiladi. Dastlab uning sezgirligi kamayadi, tashqi ta'sirlarga organizmning sekin reaksiya bildirishi, turli sezgi organlari sezgirligining pasayishi kuzatiladi.

Qarilik davrida ko'pchilik insonlar u yoki bu ma'lumotni olish uchun ko'proq vaqt sarflayotganligini his qilishadi. Qarish jarayonining natijalari insonning eshitish sezgirligining susayishida kuzatiladi. Fozard (1990)ning tadqiqotlaridan ma'lum bolishicha, bu yoshdagi insonlarda eshitishning susayishi qariyalarning uchdan bir qismida, ko'proq erkaklarda kuzatiladi. Bu yoshdagi insonlarning ko'pchiligida ko'rishning turlicha buzilishlari kuzatilishi mumkin. Ko'z gavhari elastikligining yo'qotilishi hisobiga predmetlarga nazar tashlash qobiliyatining susayishini payqash mumkin. Ko'z gavhari strukturasining o'zgarishi aniq ko'rmaslikka, keyinchalik kataraktaga olib kelishi mumkin. Qariyalardagi o'zgarishlardan biri sifatida ko'rish o'tkirligining susayishida, mayda detallarni farqlashning qiyinchiligida namoyon boladi. Bunday o'zgarishlar bifokal va trifokal ko'zoynaklar bilan to'ldirilishi mumkin. Qariyalarda ko'rish sezgirligining o'zgarishi ko'p jihatdan psixofizik funksiyalar dinamikasi bilan ko'p jihatdan bogliq. Qariyalarda ranglarni ajratish ham birmuncha susayadi, faqat sariq rangni ajratish 50 yoshdan keyin ham o'zgarmaydi. Ta'm bilish sezgilari ham qariyalarda qariyb o'zgarmaydi. Bartoshukning (1990) tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, shirinni sezish qobiliyati o'zgarmaydi. M. Spitzer (1988)ning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, achchiqni sezish biroz kamayadi. Ta'm bilish sezgilaridagi

qator o'zgarishlar ba’zan insonning individual xususiyatlariga ham bogliq boladi. Qariyalar ovqatdagi ba’zi komponentlarning ta’mini sezishda qiyinchilikni boshdan kechiradi, bu esa ta’m bilish analizatori emas, balki hid bilish sezgirligining susayishi evaziga sodir boladi. Hid sezgirligining o‘zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishidir.

Odamlarning qarilik davri 75 yoshdan keyin boshlanadi yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko‘ruvchilardir), bu fiziologik qarilikdir, bunda akliy va jismoniy quvvat, ma’lum ish qobiliyati, xushchaqchaqlik va atrofga qiziqish saqlanadi. Turli noxush tashqi va ichki ta’sirotlar barvaqt yoki patologik qarikikka olib keladi. Odatda, qarilikning dastlabki belgilari odamda etuklik davridan (shartli ravishda 60 yoshdan) so‘ng boshlanadi. Lekin aslini olganda, qarilik organizmning o‘sishi va rivojlanishi to‘xtagandan keyin sezila boshlaydi. Masalan, 30—35 yoshlarda biologik jarayonlarning faollik darajasi pasaya boshlaydi. Qarish turli to‘qima va a’zolarda bir vaqtda boshlanmaydi va turli darajada kechadi, u organizm hujayralari yashash xususiyatlarining asta-sekin susaya borishidan iborat. Dastlab qarilik tufayli boshlangan o‘zgarishlar amalda organizmning hayot sharoitlarining keskin o‘zgarishlariga moslashuvchanlik jarayonini buzmasada, ammo borabora yosh ulg‘ayib, o‘zgarishlar kuchayganda organizm bunga endi ancha qiynalib moslashadi. Xususan, bu kasallik davrida, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarda bilinadi.

Qarish jarayoni, birinchi navbatda, yuraktomir va nerv sistemasiga ta’sir qiladi; bunda bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tish qobiliyati qiyinlashadi. Tormozlanish jarayonining etarli bo‘lmasligi nerv sistemasi qo‘zg‘aluvchanligining oshishiga olib keladi, shu tufayli atrofdagi narsalarga moslashish va javob reaksiyalari sust ishlanib, sekin yo‘qoladi; emotsional beqarorlik kuchayadi qarilik ko‘pincha turli xil surunkali kasalliklar bilan kechadi, bu barvaqt qarib qolishga olib kelishi mumkin. Umuman yoshga xos o‘zgarishlar bilan kasallanish o‘rtasida ma’lum darajada bog‘liklik bor. Qarilikda organizmning moslanuvchanlik va tiklanish imkoniyatlari susayadi, bu - kasalliklarning avj olishiga va ularning ancha og‘ir o‘tishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun kasallikning oldini olish barvaqt qarishga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi. Hozirgacha qarilik sabablari to‘g‘risida aniq fikr yo‘q, lekin u bir qadar irsiyatga ham bog‘liq. Ba’zi oilalarda uzoq umr ko‘ruvchilarning nasldan-naslga o‘tganligi ma’lum. Ayollarda qarilikning erkaklarga nisbatan kechroq kuzatilishi genetik apparatning xususiyatlariga va boshqa omillarga (masalan, ayollarda chekish, spirtli ichimliklar ichish kam) ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, qarilik sur’ati turlicha bo‘ladi: ba’zilarda 75-80 yoshda, hatto ancha keyin ham turli ishlar bilan shug‘ullanish uchun kuchquvvat va imkoniyat bo‘ladi. Biroq yosh o‘tishi bilan barcha odamlarda mehnat qobiliyati pasayadi, salga toliqadi. Shu sababli, yosh o‘tganda kishining ahvoli yaxshi bo‘lsa ham og‘ir ish qilmaslik kerak. qarilik davrida ovqatlanish, mehnat va dam olish rejimiga qat’iy rioya etish, uxlashdan oldin ozroq sayr qilish, chiniqish muolajalari va boshqalar katta ahamiyatga ega. Biroq chiniqish muolajalari turini va muddatini, albatta, vrach bilan

maslahatlashib olgan ma’qul. Aytib o‘tilganlarga amal qilish barvaqt qarilikning oldini oladi va uning maromida kechishiga, shuningdek, odamning jismoniy va ma’naviy imkoniyatlarini iloji

Keksalik davridagi biologik va psixologik o’zgarishlar keksalarning his-tuyg’ularida ham ma’lum bir o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Keksaning umri davomida hayot va jamiyat to’g’risidagi qarashlari, e’tiqod va ehtiyojlari, turmush tarzi, oilaviy mezonlari, farzandini qanday tarbiyalanganligi va uning natijasi, hamda ular hayotining asosiga aylangan, butun borlig’iga o’z izini qoldirgan ijtimoiy o’zgarishlar, biologik jarayonning zaiflashuvi asosida ularning xarakter xislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchsizlik hislarini paydo bo’lishiga sabab bo’ladi. Bunday psixofiziologik o’zgarish va xususiyatlar keksalar hayotida ijtimoiy – psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bularning barchasi ma’lum darajada depressiv holatlarni paydo qiladi. Shuning uchun ham ko’pchilik qariyalar jizzaki, bola tabiat, injiq bo’lib, o’zlariga nisbatan hurmat – e’tiborni talab qiladigan bo’lib qolishadi.

Xulosa qilib aytganda keksayish davrida ko‘pchilik sensor funksiyalar susayadi. Lekin shuni ta’kidlash joizki, biz yuqorida ko‘rib o‘tgan sensor sezgirlik tiplarining ko‘pchilikda susayishi kuzatilsa-da, bu hammada bir xil emas. Sensor funksiyalarning susayishi, shaxs shug‘ullangan faoliyat turiga bog’liq ravishda o‘zgarish kuzatiladi. Umuman olganda keksalarga hurmat-e’tibor ko’rsatish va e’zozlash hamda ularning el-yurt faoliyati hamda yosh avlod tarbiyasida boy hayotiy tajribasidan foydalanish keksalarning jamiyatda o’zlarining muhim va kerakli shaxs sifatida xis qilib yashahlariga,psixologik jihatdan ish qobiliyatlari va intellektual salohiyatini saqlab qolishlariga,uzoq umr ko’rishlariga hamda hayotlarini qiziqarli o’tishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishanova Z.T. “Rivojlanish psixologiyasi va pedagogic psixologiya” Toshkent 2018. 433-b.
2. G’oziyev E.G’. “Ontogenez psixologiyasi” Toshkent 2010. 360-b.
3. Ананьев Б.Г. К проблеме возраста в современной психологии / Психология старения и старения: Хрестоматия / Сост. О. В. Краснова, А. Г. Лидеров. М.: Академия, 2003.
4. Анцыферова, Л.И. Развитие личности и проблемы геронтологии. М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2-е издание, исправленное. и дополнение, 2006.
5. Головей, Л.А. Позитивная активность пожилого человека: комплексный подход / Л.А. Головей, О.Ю. Стрижицкая, А. В. Криулина // Психологические исследования. 2014 год. Том 7. № 36.
6. Додонов Б.И. Эмоция как ценность. М.: Политиздат, 1978. 271 с.

МУНДАРИЖА

	F.I.O	MAQOLA NOMI	SAHIFA
1	Qirg‘izboev A.G‘.	Kirish so’zi	3
2	Abdullaeva B.S	Tabrik so‘zi	5
3	Ibragimova G.N	Tabrik so‘zi	8
		YALPI MAJLIS	
4	Shoumarov G‘.B.	Bola shaxsini shakllanishida otaning roli	11
5	Karimova V.M.	Oilada shaxslararo munosabatlar optimallashuvida ona shaxsining o‘rni	14
6	Баратов Ш.Р	Махаллаларда ёшларнинг комил шахс сифатида ривожланишининг психологик компонентлари.	18
7	Umarov B.M.	Yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik masalalari	22
8	Саттаров Э.Н.	Замонавий таълим усулларини қўллаш – ёшларга сифатли таълим беришнинг асоси сифатида	26
9	Akramova F.A.	Yoshlarni psixologik yetukligi namoyon bo‘lishida oilaviy munosabatlarning o‘rni	31
10	Sog’inov N. A.	Amaliyotchi psixologlarni kasbiy etukligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari	34
		1-SHO’BA: SIFATLI TA’LIM: OMILLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR	39
11	Тиллашайхова Х.А. Акмалова Н.А.	Психологический климат в группе как условие актуализации рефлексивной деятелности в учебно-воспитателной работе	39
12	Mo’minov D. M.	Yoshlar hayotida kasb tanlash motivatsiyasining psixologik jihatlari	43
13	Kurbonova G. A.	Fanlararo aloqadorlikning psixofiziologik asosi va muhim jihatlari	46
14	Abdullayev A. Sh.	Maktab ta’limi sohasidagi ayrim islohotlar natijasining ijtimoiy-psixologik tahlili (o‘qituvchilarning mehnat jarayonidan qoniqishi misoloda)	50
15	Dadabolayeva O.S. Abdullayeva D. I.	Boshlang`ich sinf o’quvchilarini pirls xalqaro baholash tizimiga tayyorlash	54
16	Abulova M.K.	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’lim huquqlari	55
17	Artikova N. Sh. Israilova J. N.	O`quvchilarning matematikadan mustaqil ishlarini tashkil qilish usullari	58
18	Nizomov B.R. O’rinova O. N.	Jismoniy tarbiya sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lig'ini saqlash	60
19	Baybayeva M.X. Karimova M.M.	Ta’limda innovatsiyalarni boshqarish	64
20	Boybekova I. X.	Talabalar o‘zlashtirishini baholashning psixologik xususiyatlari	66
21	Masharipov Y. Botirova G. B.	Xotin-qizlarni sport turlariga qiziqtirish muammolari	70
22	Ibragimova Sh.	Maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishida o`yin faoliyatining ahamyati	73
23	Jòramurotova S.O.	Ta`lim tizimini takomillashtirishda – bo`lajak pegagoglarni tayyorlashning nazariy huquqiy asoslari	77
24	Axmedov Q. A.	Rossiyada amaliy ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari	80

25	Rajapov P.S.	Buyuk saljuqiylar davri (1038-1157) madrasalarining ta'lim jarayonini ijtimoiy xususiyati	84
26	Sultonov R.K.	Tug'ilgandan bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda traxeya rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasini baholash	88
27	Turayev D.A.	Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari va modeli	90
28	Turayev R. T.	Ixtisoslashtirilgan maktabdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash usullari va ularning psixologik xususiyatlari	94
29	Tursunboyeva D.	Bolalar iqtidorini yuzaga chiqishiga to'siq bo'luvchi omillar	98
30	Xayitova Z. M.	"O'qituvchi-o'quvchi" munosabat tizimi samaradorligi	101
31	Ходжикулова Ф.Д.	Социально-экономическое значение малого бизнеса и частного предпринимателства	103
32	Xoldorova M.G'	Harakatli o'yinlarni o'rgatishda o'quvchilarning faolligini oshirish	105
33	Allayorova S.U.	Maktabdan tashqari ta'limda marketing faoliyati	107
34	Abdunazarova Z.S. Erkinova Ch. Ergasheva S.	Sharq allomalarining talabalardagi reproduktiv salomatlik ko'nikmalarini shakllantirishga oid qarashlari	109
35	Abdirashitova G.B.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi	113
36	Artikova N.Sh. Mamatova M. M.	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishning o'ziga xos muammo va echimlari	116
37	Badritdinova M.B.	Muammoli ta'lim mustaqil fikrlash omili sifatida	119
38	Voxidova N. X.	Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash mazmuni	122
39	Gapparova M.E.	O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish metodlari	125
40	Nuralieva D.M.	O'smirlarni ta'lim jarayoniga qiziqish motivlarini oshirish va ularni pedagogik-psixologik tahlili	129
41	Jo'raeva S.N.	Kasbiy kompetentlikning bugungi kundagi ahamiyati	132
42	Исамова П.Ш. Абдурашитова Д.	Психологические особенности гендерной социализации в дошколном возрасте, как проблема современного образования	138
43	Karimova M. H.	Harbiy ta'limda o'qituvchi-kursant munosabatlarining ko'rsatkichlari	140
44	Komilova M. M.	Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida rus tilini o'qitishda muammolar va takliflar	146
45	Tursunov L. S.	Forobiyning shaxs rivojlanishiga kognitiv yondoshuvlari	149
46	Абдувалиева М. А.	Инклюзивное образование в США как эффективный способ обеспечения качественного образования	153
47	Mamatova S. M.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishning samaradorligi	158
